

TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARGA EKOLOGIK TA'LIM-  
TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

Akramov Adahamjon Abarjon o'g'li

Farg'onan davlat universiteti Botanika, biotexnologiya va ekologiya  
kafedrasi o'qituvchisi,

**Annotatsiya:** *Ta'lism jarayonlarida ekologik vaziyatlar o'ziga xos pedagogik xususiyatga ega. Inson tabiat qudratini kuch bilan emas, balki muvozanatni buzmagan holda muvofiqlashtirishi kerak. Ekologik ong insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri sohasidagi bilimi va e'tiqodini mujassam etadi. Ekologik tushunchalarni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni berish bilan bir qatorda, madaniy-ma'rifiy ishlarning barcha samarali shakllari va uslublaridan, jumladan, ommaviy axborot vositalaridan, og'zaki, ko'rgazmali va texnika vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *ekologik ta'lism va tarbiya, tabiatni o'zgartirish, obodonlashtirish, ekologik madaniyat, atrof-muhit, tabiiy resurslar.*

O'zbekiston yangi renessans bosqichiga o'tayotgan sharoitda ta'lism-tarbiya masalalari har doimgidan ham dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, global ekologik inqiroz holatida mamlakatlarda ekologik tarbiyaga innovatsion yondashuvlarni olib kirish zarurati ortib boradi. Zero, «mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq». Shunday ekan, O'zbekistonda ham ekologik ta'lism va tarbiya jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois ekologik ta'lism va tarbiya jarayonining mavjud holatini tadqiq etish va muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslarini aniqlash pedagogik tadqiqotlarning asosi maqsadiga aylanmog'i zarur.

Bugungi kunda barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoxda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o'zaro bog'liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo'nalishni bir-biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

-birinchidan, ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish;

-ikkinchidan, tarixiy ekologik tajribalar asosida ekologik ta’lim- tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida kishilarda ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashini rivojlantirishdir.

Bu yo‘nalishlarni umuminsoniy ma’nfaatlar negizida uyg‘un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o‘ynaydi.

Umuman, tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta’lim-tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomillashtirib, amaliyotda qo’llash ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta’lim-tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini, usullarini, vositalarini uyg‘un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur pedagogik jarayonda integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish mexanizmlari muntazamlilik, izchillik va uzlusizlik tamoyillari orqali ekologiyaga oid kompetensiyaviy yondashuvlarning funksional aloqadorligini didaktik talablar bilan uyg‘unligini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonlarida ekologik vaziyatlar o‘ziga xos pedagogik xususiyatga ega. Inson tabiat qudratini kuch bilan emas, balki muvozanatni buzmagan holda muvofiqlashtirishi kerak. Ekologik ong insonning tabiat bilan o‘zaro ta’siri sohasidagi bilimi va e’tiqodini mujassam etadi. Ekologik bilimlar odamlar o‘zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog‘langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit holati uchun mas’ullik hissini tarbiyalash, hayvonot va nabolat olamini asrash obyektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti hisoblanadi.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning muhim shakli o‘quvchilarning o‘z hududlarini obodonlashtirish, ko‘chat – daraxtlar ekish va ularni o‘z vaqtida parvarish qilish, qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish, buloq, ko‘l va ariqlarni chiqindilardan tozalash, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarda obodonlashtirish ishlarini o’tkazishlarida hududiy-geografik, etnografik-mental an’analarni ham ularga singdirib borish va boshqa amaliy ishlar muhim ahamiyatga ega. Bular orqali o‘quvchilarda ekologik bilimlarning internal va eksternal namoyon bo‘lish darajalarini empirik tahlil qilish imkonи ham vujudga keladi. Bunday ishlar natijasida yoshlarda nazariy olingan bilimlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog‘liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. O‘quvchilar insonning tabiatdagi o‘rnini, ona shahri yoki qishlog‘i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining ahamiyatini, yer va havo, ko‘l, daryolarni toza saqlash

masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtai nazarning dolzarb ekanini tushunib yetadilar. Aynan yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi.

Milliy ma'naviyatimizning serqirra va teran ildizlariga tayangan holda mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ishlab chiqishda ekologik mafkura, ta'lim va tarbiya tizimini yaratish alohida o'rinn tutadi.

Ekologik tushunchalarini shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni berish bilan bir qatorda, madaniy-ma'rifiy ishlarining barcha samarali shakllari va uslublaridan, jumladan, ommaviy axborot vositalaridan, og'zaki, ko'rgazmali va texnika vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ekologik targ'ibot aholining muayyan toifalari ongiga ta'sir etibgina qolmay, balki bog'cha yoshidagi boladan tortib, aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi, hammaga tushunarli, ko'rgazmali va oshkora bo'lishi lozim. Tabiat, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqida xabarlar berish bilan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan e'zoz uyg'otib, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish borasida ekologik ta'lim-tarbiya beshigi rolini o'tashi lozim. Insoniyatni kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatning barqarorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har birimiz ekologik bilimlarga ega bo'lmog'imiz zarur.

Sayyoramiz kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq. Binobarin, o'quvchi yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning algoritmik bosqichlari, oddiydan murakkabga, uzviylik va uzlusizligini ta'minlash, ularda ekologik bilim, tafakkur, ekomadaniyat, ayniqsa, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, ushbu sohada zamonaviy innovatsion texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasini yanada takomillashtirishni, yoshlarning ekologiyaga bo'lgan ongli munosabatini yaxshilash hamda bilim-ko'nikmalarini oshirishni davrning o'zi talab etmoqda. Mazkur xayrli ishlarni amalga oshirishda keng jamoatchilikning roli beqiyosligini barchamiz unutmasligimiz lozim.

Yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirishda, tabiiy resurslarni besamar sarflash, suv, tuproq, o'simlik yoki yerning o'zidan bemaqsad foydalanish tufayli yuzaga kelgan ekologik muammolarni tushunib yetishlari, shuningdek, hunarmand ustalar chiqitsiz mahsulot tayyorlaganliklari, otabobolarimiz Ona yerni hurmat qilgani, uni rizq-ro'zimiz deb bilgani, haydaladigan yerlar va yaylovlardan nisbati qat'iy saqlanganligi, o'lkamizda suvni qadim-qadimdan oltin misoli qadrlanganligi, uy-joy qurilmalari, har bir oilada

o‘g‘il tug‘ilishi bilanoq imoratga yetadigan terak ekib qo‘yilishi, dehqonchilik mavsumi erta bahorda ariqlarni qazish va tozalash, yo‘l va ko‘priklarni tuzatish, hasharlar tashkil etish va shularga o‘xshash bir qator tadbirlar xalqimizning ekologik madaniyati yuksak bo‘lganligini bildiradi. Afsuski, bugungi kunda biz ularni unutib qo‘yganmiz. Ota-bobolarimiz merosini yaxshilab o‘rganish hamda undan hozirgi davrga bog‘langan holda foydalanish imkoniyatlarini yaratishimiz kerak.

O‘quvchilarga ekologik tarbiya berishda ilmiy-nazariy ma’lumotlarni egallash bilan birga ularni bevosita amaliy ishlarga qatnashishi muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilarining yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda nazariy va amaliy bilimlarning aloqadorligini maqsadli tizimlashtirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Bularga «yashil va havorang patrullar» maktab o‘rmonchiligi, tuproq eroziyasi va sho‘rlanishga qarshi kurashuvchi guruuhlar, tabiatni o‘rganish uchun tashkil etilgan eksperimentlar, mакtab va aholi yashaydigan joylarni ko‘kalamzorlashtirish, bog‘dorchilik ishlari, landshaftlarni qayta tiklash, o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilish, «Ko‘chat ekish oyligi», «Shahar tozaligi oyligi», «Navro‘z» bayrami munosabati bilan «Tabiatni muhofaza qilish kuni»ni o‘tkazish, «Xazonrezgilik oyligi»da qatnashishi va hokazolarni misol qilish mumkin.

Ekologik madaniyatdan o‘z ichiga ekologik bilimlar, tushunchalar, tabiat hayot manbai va go‘zallik, axloqiy estetik boylik, tabiat bilan munosabatda vujudga keladigan his-tuyg‘ular, tabiatni asrash uchun javobgarlik, har qanday faoliyat turida atrof-muhitni va odam salomatligini asrash, o‘z xatti-harakatida tabiatni saqlashga faol intilish va uni ilmiy nuqtai nazardan hal etish. Keng ma’noda qaraganda umuminsoniy madaniyatning yangi mazmunidir.

Insoniyatning tabiiy atrof-muhitga munosabat madaniyatini shartli ravishda ekologik moddiy va ekologik ma’naviy madaniyat yo‘nalishlariga ajratish. metodologik jihatdan maqsadga muvofiq. Ekologik moddiy madaniyat, avvalo, ishlab chiqarish kuchlarining mujassamlashganligidir. Ayniqsa, ekologik vaziyatning keskinlashayotgani hozirgi ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishini sof iqtisodiy manfaatlar doirasidan chiqarib yubordi. Ekologik ehtiyojlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi bilan ishlab chiqarishning barcha texnologik va muhandislik asoslarini tabiatni muhofaza qilish manfaatlari doirasida qayta ko‘rish chiqish kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shuning uchun intellektual texnik ijodkorlikda qiymati oshib ketishi tasodifiy emas.

Ekologik ma’naviy madaniyat yo‘nalishlar va ular o‘rtasidagi uzviy bog‘lanish umumiylk ekologik madaniyat, merosni saqlash va rivojlantirish orqali

ekologik tadqiqotni, faol mavqeni tarbiyalash vositasi vazifasini ham bajaradi. Ikkinchi tomondan, ekologik moddiy madaniyatni umumiy ma’naviy madaniyatsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Zero, moddiy madaniyat madaniyatning mujassamlashgan, mushtaraklashgan holda moddiylashganini ifodalaydi.

Insoniyatning moddiy va ma’naviy madaniyat o’rtasidagi dialektik boglanishi va aloqadorligi tarixiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, moddiy va ma’naviy madaniyatlarning nisbatan mustaqil majmualari hamma tarixiy rivojlanish bosqichlarida tabiatni muhofaza qilish ehtiyoji bilan ziddiyatda bo’lib kelgan. Ekologiyaga nisbatan aqliy, estetik munosabatlar – bola tomonidan o’zlashtirilayotgan bilimlarning mazmuni bilan yaqindan bog’liqdir.

Quyida ekologik ta’lim-tarbiyaga oid tushunchalarni integrativ yondashuv asosida o’quvchilarda muntazamlilik, izchillik va uzlukcizlik tamoyillari orqali ekologiyaga oid kompetensiyaviy yondashuvlarning funksional aloqadorligini didaktik talablar bilan uyg’unligini ta’minlash mexanizmlarini ta’lim bosqichlari bo‘yicha keltirib o’tamiz.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirish mazmuni bilan bog’liq bo’lgan bilim tabiatda bolalar faoliyatini, ularning o’zini tuta olishi, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo’naltiradi. Tabiatga bo’lgan munosabatni shakllantirishda bolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi tabiat qonunlari bo‘yicha bilim alohida o’rin egallaydi.

Tabiatga nisbatan bo’lgan ijobiy munosabatni rivojlantirish, (mashg’ulot, ekskursiya, sayr qilish kabi hayotiy vaziyat) bolaning ma’naviy va ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil qilish bilan yaqindan bog’liqdir.

Tarbiyachi bolada tirik jonga nisbatan achinish, uni asrab-avaylash, jonli tabiat bilan uchrashganda undan babra olish, quvonish, hayron bo’lish, o’zining qilgan ishidan mag’rurlanish, qoniqish hissini uyg’ota bilish kerak. Bolalarga tabiat bilan muloqotda bo’lganda o’z tengdoshlari va kattalar qilgan ishlarni baholashni o’rgatishi muhim ahamiyatga ega. Tabiat bilan tanishtirish tarbiyada pedagogik jarayon oldida turgan barcha vazifalarni umumlashtirilgan holda yechilishini talab qiladi. Tabiat bilan tanishtirishga oid tarbiya vazifalari bu sohada faoliyat ko’rsatishga tayyor sharoitda amalga oshirilishi mumkin. Tabiat bilan tanishtirish bo‘yicha bilimlarni tanlab olishda ilmiylik, muntazamlilik, izchillik va uzlukcizlik prinsiplari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik madaniyatning asosini bolalar tomonidan jonli va jonsiz tabiatning o’zaro bog’liqligi va ularning bir butunligini tushunish tashkil qiladi.

Jonsiz tabiat tirik organizmning ehtiyojini qondiruvchi manba tarzida namoyon bo‘ladi.

Masalan, baliqlar suvda hayot kechirishga moslashganlar, suv ularning shakliy tuzilishi va hayot kechirish tarzini ohib beradi. Tuzilgan dasturlarda hayot kechirish muhiti, tirik organizm yilning mavsumlariga moslashishini o‘rganuvchi bilimlaring mavjudligini ko‘zda tutishi lozim. Organizm bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bir organizm ikkinchi organizm hisobiga hayot kechiradi. Hozirgi vaqtida bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda tabiat bilan insonning bir butun ekanligini oldinga suruvchi g‘oya to‘liq holda ohib berilishi kerak. Inson jonzot sifatida yashayotgan muhit bilan chambarchas bog‘liq holda, tabiat va insonning o‘zaro harakatlari insonning atrof-muhitga va tabiatning insonga ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ekologik bilimlar o‘quvchilarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sinflar darajasida farqlanishi asosida tashkil etiladi. Bunda pedagogikaning «oddiydan murakkabga», «uzviylik va uzlucksizlik» kabi tamoyillarga tayangan holda nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligiga, o‘quvchilarda ekologik madaniyat hamda tarbiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlaydigan maqsadli tizimga aylanishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalar mavjud o‘quv fanlari mazmunida uzviylik asosida beriladi va bir butun kompleks tarzda ifodalanadi. Unga ko‘ra umumiy o‘rta ta’lim tizimini tamomlagan shaxs minimal darajada ekologik tushunchalar, xulk-atvor qoidalari (ekologik madaniyat) to‘g‘risida bilimga ega bo‘ldi, ekologik bilimlar fanlar mazmuniga majburlovchi chora sifatida emas, fan mazmunidan kelib chiqqan xolda singdiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Gaynullaeva M, Maksudova G., Akramov A “Technology of grain – leguminous plant care in the hungry bush soils of Ferghana region” EPRA International journal of multidisciplinary research 2021, Pages: 616-617
2. Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM. In Конференции.
3. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.
4. Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕЛОВЕКА НА

РАСТИТЕЛЬНЫЙ И ЖИВОТНЫЙ МИР. THEORY AND ANALYTICAL  
ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(5), 547-554.

5. Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI  
SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR  
O'QITUVCHI, 2(20), 216-219.

6. Abarjon o'g'li, A. A. (2022). SHO 'RLANGAN ERLARDA  
DUKKAKLI DON EKINLARINI EKISHNING AFZALLIGI. INNOVATION IN  
THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(18), 351-354.

7. Xalmatova, S., Gaybullayeva, M., & Akramov, A. (2022). O 'SIMLIKlar  
OLAMIGA INSON FAOLIYATINING SALBIY TA'SIRI, HAMDA UNI OLDINI  
OLISH CHORA TADBIRLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational,  
natural and social sciences, 2(10-2), 947-953.

8. Xalmatova, S., & Akramov, A. (2022). KIMYOVİY O 'G 'ITLAR  
TARKIBIDAGI TURLI MODDALAR ORQALI TUPROQLAR QATLAMINI  
IFLOSLASHI VA UNING OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI.  
International scientific journal of Biruni, 1(2), 4-7.

9. Abarjon o'g'li, A. A. (2022). SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-  
MUHITGA TA'SIRI. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022,  
2(14), 70-73.

10. Akramov, A. (2022). USE OF DIDACTIC GAME TECHNOLOGIES IN  
TEACHING ECOLOGICAL SCIENCE. Galaxy International Interdisciplinary  
Research Journal, 10(12), 559-562